



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari

4-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Maxmudov Mansurjon Abdug'opporovich</i> TARIXIY ASARLAR VA ULARNI O'RGANISH: MILLIY ZIYOLILAR TOMONIDAN OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR	12-17
<i>Qurbanov Xurshid Raupovich</i> O'ZBEKISTONDAN JANUBIY URALGA SAFARBAR QILINGAN "MEHNAT ARMIYACHILARI" VA ULARNING TA'MINOTI	18-22
<i>Salayev Fazliddin Shamsiddin o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA DEMOGRAFIYANING RIVOJLANISH TARIXI VA SHAKLLANISHI	23-28
<i>Abbasov Behzod Baxtiyorovich</i> FARG'ONA OBLASTIDA TASHKIL QILINGAN XO'JALIKLARDA IJTIMOIY MUAMMOLAR VA KO'CHIRILGAN AHOLINING YANGI SHAROITGA MOSLASHISHI (1946-1965).....	29-35
<i>Mirzaliyev Ulug'bek, Klichev Ulug'bek</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY ARXIVLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH BORASIDAGI ISHLAR VA ISLOHOTLAR	36-39
<i>Tursunova Gavhar Begmuradovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIDA OLIB BORGAN MA'MURIY-SIYOSIY BOSHQARUV TIZIMI (XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI)	40-50
<i>Vaxobov Doston Abdumannob o'g'li</i> IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA MAKTAB, TIBBIYOT VA SOG'LIQNI SAQLASH XODIMLARINING G'ALABAGA QO'SHGAN HISSASI	51-54
<i>Sodiqova Yulduzzon Maxamat qizi</i> O'ZBEKISTONDA MAKTAB TA'LIMINI ISLOH QILINISHI VA UNDAGI O'ZGARISHLAR (1991-2024 yy)	55-59
<i>Maxmudov Umrbek Baxtiyorovich</i> QUYI SIRDARYOBO'YI HUDUDLARIDA OLIB BORILGAN ARXELOGIK TADQIQOTLAR VA ULARNING NATIJALARI	60-64
<i>Yo'ldosheva Gulbahor Nuriddinovna</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING AHVOLI VA MODDIY – TEXNIKA BAZASINING MUSTAHKAMLANISHI (QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI MISOLIDA)	65-69
<i>Mardiyeva Guzel Karimovna</i> XOTIN-QIZLARNING 1950-1980-YILLARDA SAMARQAND VILOYATI ILM-FAN SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI	70-75
<i>Narziyev Rustambek Xaydarovich</i> HARAKATLAR STRATEGIYASIDA NOGIRONLIGI BOR YOSHLAR UCHUN YARATILGAN IMKONIYATLAR	76-80

<i>Abdullayev Ilhomjon Ikromjonovich</i>	
XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA NAMANGAN SHAHRINING	
IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI	81-87
<i>Sodiqova Maxbubaxon Raxmonaliyevna</i>	
O'ZBEKISTONNING MILLIY HUNARMANDCHILIGI RIVOJIDA	
IPAKCHILIKNING O'RNI	88-92
<i>G'ulomjon Jumanazarovich Axmedov</i>	
O'ZBEKISTON TARIXIDA KONCHILIK ISHI VA METALLURGIYA RIVOJLANISHI	93-99

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i>	
BARQARORLIK REYTINGI ORQALI FISKAL INTIZOM VA BIZNES MUHITINI	
RAG'BATLANTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI	100-116
<i>Юлдашева Надира Викторовна</i>	
«ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ЗАКУПКИ ПОД КОНТРОЛЕМ:	
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКОЙ МОДЕЛИ МОНИТОРИНГА».....	117-123
<i>Maxsudov Sherzod Solijonovich</i>	
ERKIN IQTISODIY ZONALARDA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISH	124-128
<i>Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li</i>	
TURISTIK VA REKREATSION KLASTERNING MUVAFFAQIYATLI	
FAOLIYAT YURITISH TAMOYILLARINI TIZIMLASHTIRISH	129-135
<i>Xadimova Aziza Abdufattoyevna</i>	
SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK O'ZGARISHLARI	
VA IQTISODIY RIVOJLANISHI.....	136-145
<i>Tashpulatov Giyos Toxirovich</i>	
XORIJY BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR REYTINGI VA RENKINGINI BAHOLASHDA	
KOMPLEKS YONDASHUVNING QO'LLANILISHI T AHLILI	
(ROSSIYADAGI BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR MISOLIDA)	146-159
<i>Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna</i>	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA	
INSON KAPITALINING TA'SIRI	160-164
<i>Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi</i>	
“QUTIDA RO'YXATGA OLISH” (SHELF-REGISTRATION) AMALIYOTINI JORIY ETISH	165-169

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Komilov Ro'zi Rabiyevich</i>	
OILA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MODDIY VA MA'NAVIY	
OMILLARNING FALSAFIY T AHLILI	170-172
<i>Хакимов Эркин</i>	
ЗНАНИЕ ЛОГИКИ КАК УСЛОВИЕ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ	
МЫШЛЕНИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ	173-180
<i>Usmonova Laylo Raxmatullayevna</i>	
SHARQ FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI	181-185
<i>Karimov Yo'lqosh Ergashevich</i>	
TARIXNI SOXTALASHTIRISHNING TARIXIY TAFAKKURGA TA'SIRI MASALALARI	186-191

<i>Агзамходжаева Шахноза Сайдматмабовна</i>	
О ЦЕЛИ И СОДЕРЖАНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ЖИЗНИ, ДУХОВНОМ СОВЕРШЕНСТВЕ (ПО ПРОИЗВЕДЕНИЯМ АЛИШЕРА НАВАИ).....	192-195
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i>	
ZAMONAVIY IQTISODIY TARG'IBOT VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	197-204
<i>Evatov Salimjon</i>	
MARKAZIY OSIYODA TASAVVUFİY TAFAKKUR RIVOJI: IX-XII ASRLAR MEROSI	205-209
<i>Turobov Yorqinjon Yoqub o'g'li</i>	
ISLOM TA'LIMOTIDA SIYOSAT VA HOKIMIYAT FALSAFASI	210-213
<i>Toshpulatov Odil Nodirovich</i>	
IJTIMOIY MUNOSABATLARDA AMORALIZM VA IMMORALIZMNI OLDINI OLISHDA MAVJUD ME'YORLARNING AHAMIYATI	214-217
<i>Kunisheva Nadira Julianovna</i>	
"IJTIMOIY BAG'RIKENGLIK" TUSHUNCHASINI TADQIQ ETISHNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI	218-223
<i>Eshpulatov Inoyat</i>	
FAXRIDDIN ROZIY YASHAGAN DAVR: IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYAT VA MA'NAVIY MUHIT	224-231
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Nuniyazova Shaxlo Ulugbekovna</i>	
O'ZBEK ONOMASTIKASIDA GIDRONIMLARNING LINGVOMADANIY SHAKLLANISHI	232-236
<i>Алиева Эльвина Аметовна</i>	
ЛЕКСИЧЕСКИЙ И ЛЕКСИКО-СИНТАКСИЧЕСКИЙ ПОВТОРЫ С РАСПРОСТРАНЕНИЕМ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОЧЕРКАХ М. ЦВЕТАЕВОЙ	237-243
<i>Usmanova Sevara</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TARIXIY ROMANLARIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TO'QIMA	244-251
<i>Ochilov Ulug'bek Sayfulloyevich</i>	
MAGIK REALIZMNING MADANIYAT VA ADABIYOTGA TA'SIRI.....	252-260
<i>Daminova Rahima Malikovna</i>	
ATOYI SHE'RIYATINING BADIY LATOFATI.....	261-266
<i>Yusupov Asror</i>	
PUBLITSISTIK MATNLARDA UCHROVCHI LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKAR TARJIMASIGA LEKSIKOGRAFIK YONDASHUV	267-271
<i>Ruziyeva Nasiba Kenjayevna</i>	
VLADIMIR GEORGEVICH GAKNING TARJIMA MASALALARIGA DOIR TADQIQOTLARI	272-276
<i>Batirkhanova Madina Oybekovna</i>	
COMPONENT ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH FICTION	277-281
<i>Sirojiddinova Shakhrribonu</i>	
THE FORMATION OF MYTHOLOGY AND THE INFLUENCING FACTORS	282-285

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i>	
DAVLAT XIZMATLARI VA FUQAROLIK-HUQUQIY XIZMATLAR TUSHUNCHASI HAMDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	286-292
<i>Wang Cong</i>	
RESEARCH ON LEGAL ISSUES OF PERSONAL INFORMATION PROTECTION	293-300
<i>Ли Адик</i>	
К ВОПРОСУ О ПОНЯТИИ И КЛАССИФИКАЦИИ ВИДОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	301-310
<i>Abdurashidova Zarina Turg'un qizi</i>	
FUQAROSIZLIKKA QARSHI MUROSASIZLIK: HUQUQIY CHORALARING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI	311-315
<i>Axmatov Olimjon Odilovich</i>	
"KRIPTO-AKTIVLAR VA VALYUTA QIMMATLIKARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH, O'TKAZISH VA AYIRBOSHLASH: IQTISODIY, HUQUQIY XAVF-XATARLAR VA ULARNING OLDINI OLISHDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI"	316-322
<i>Xatamov To'lqin Tojiddinovich</i>	
KUCHLI TA'SIR QILUVCHI VA GIYOHVANDLIK VOSITALARINI YANGI TURLARINI NOQONUNIY MUOMALASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI	323-329
<i>Kuchimova Shaxlo</i>	
VORISLIK HUQUQIDA MEROS MAJBURIYATI	330-337
<i>O'ranova Dilshoda Adhamovna</i>	
OILAVIY ZO'RAVONLIK JINOYATINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI HAMDA USHBU TURDAGI JINOYATLARDA AYOLLAR JABRLANISHINI OLDINI OLISH BO'YICHA FARG'ONA TAJRIBASI	338-347
<i>Geng Zhimin</i>	
RESEARCH ON THE INDEPENDENCE OF THE INTERNATIONAL CRIMINAL COURT.....	348-351
<i>Xidirov Mexroj Qilich o'g'li</i>	
ELEKTRON TO'LOV VOSITALARI ORQALI SODIR ETILADIGAN FIRIBGARLIK JINOYATLARINING SABABLARI, ULARNING SODIR ETILISHIGA IMKON BERUVCHI OMILLAR	352-357
<i>Тулаганов Элмурод</i>	
ВОПРОСЫ ПРОТИВODEЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	358-367
<i>Bozorboyev Farruh, Boboxonov Akromxon</i>	
DASTLABKI TERGOV BOSQICHIDA PROTSESSUAL HARAKATLARNI SODDALASHTIRISH: XOLIS INSTITUTI	368-374
<i>Abbosov Mirluton Mirsharof o'g'li</i>	
JINOYAT QONUNCHILIGIDA SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIY XAVFLILIGI	375-382

<i>Mamatov Islom Qosim o'g'li</i>	
DAVLAT XARIDLARI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI FOSH ETISH USULLARI, AMALIYOTDAGI MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR	383-392
<i>Kamilov Oybek</i>	
O'ZBEKISTONNING MIGRATSIIYA SOHASIDA MINTAQAVIY TASHKILOTLAR VA XORIJY DAVLATLAR BILAN HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	393-402
<i>Aбророва Камола Сайдмухторовна</i>	
ВЛИЯНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО КОММЕРЧЕСКОГО АРБИТРАЖА НА ИНВЕСТИЦИОННЫЙ КЛИМАТ УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ	403-410
<i>Ne'matova Muborak Odiljonovna</i>	
RAQAMLI FUQAROLIKNING MOHIYATI VA UNI SHAKLLANTIRISHGA OID DOLZARB MUAMMOLAR (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	411-418
<i>Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi</i>	
"HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTIGA SUN'iy INTELLEKTNI INTEGRATSIYA QILISHNING AXLOQIY VA HUQUQIY MASALALAR"	419-427
<i>Agzamova Qizlarxon Baxtiyorovna</i>	
INSOFLI EGALLOVCHINING HUQUQIY MAQOMIGA OID AYRIM MASALALAR	428-432
<i>Shomirzayev Saxodulla, Sherkulov Azamat</i>	
VALYUTA QIMMATLIKARINI BOJXONA CHEGARASIDAN OLIB O'TISH BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLARNI ANIQLASH VA JAVOBGARLIK ASOSLARI	433-441
<i>Jumanazarov Faxriddin Erkinovich</i>	
KONTRAFAKT MAHSULOTLAR KONTRABANDASI NATIJASIDA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI BUZILISHINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI	442-448
<i>Ergashev Sharifjon Shuhrat o'g'li</i>	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING JAMIYAT IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI VA UNGA QARSHI KURASHISHDA BOJXONA AUDITINING O'RNI	449-457
<i>Mansurov Arslon Askarovich</i>	
"IJTIMOIY DAVLAT" TAMOYILINING YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI HUQUQIY MAQOMI VA XALQARO TAJRIBA BILAN TAQQOSLAMA TAHLILI	458-463
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i>	
"JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI" FANIDAN NAZARIY MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISH METODIKASI	464-470
<i>Yusubjanova Musharraf Tursunali qizi</i>	
EHTIMOLLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKANI UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QITISH: XORIJY TAJRIBA VA ILMIY YONDASHUVLAR	471-475
<i>Fayzullayeva Gulchexra, Kurbonova Gulmira</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOLLABORATIV O'QUV MUHITINI LOYIHALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR	476-481

<i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i>	
ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINING MAZMUNI VA TARKIBIY TUZILISHI.....	482-485
<i>Mirsanova Moxira Xusniddin qizi</i>	
FANTASTIK IFODA SHAKLLARI VA UNING BADIYATI	486-491
<i>Tursinova Zoxida Sharabidinovna</i>	
TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MAKTAB O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH MEXANIZMLARINING TAKOMILLASHUVIDA TA'LIM MENEJMENTINING O'RNI	492-496
<i>Раббимова Нодира Таштемировна</i>	
ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ИНФЕКЦИОННЫХ БОЛЕЗНЕЙ В ВУЗЕ	497-501

Received: 16 March 2025**Accepted:** 5 April 2025**Published:** 15 April 2025*Article / Original Paper***THE DEVELOPMENT OF MYSTICISM IN CENTRAL ASIA:
THE LEGACY OF THE 9TH-12TH CENTURIES****Evatov Salimjon,**

Phd, Senior Lecturer,

Fergana State University

E-mail: s.evatov@mail.ru

Abstract. Mysticism is an integral part of the religious culture of the peoples of the East. Observing research on the formation of mysticism in Central Asia, firstly, researchers from different countries of the world have expressed different opinions about mysticism mainly on the history, formation and development of the Sufi doctrine and the ideas put forward in it, relying on the views that were prioritized in their circle. Secondly, mysticism in Central Asia has been studied as a component of the mysticism of other regions, in particular, Khorasan. Thirdly, we can observe that the mysticism of Central Asia began to be studied mainly from the time of the 12th century sects. This article focuses on the review of research on the formation of mysticism-philosophical ideas in Central Asia in the 9th-12th centuries, and, along with the sources created in the Middle Ages on the topic, gives a wide place to scientific research conducted by researchers from the East and West in the 20th - 21st centuries.

Keywords: mysticism, philosophy, society, religious-philosophical doctrine, mysticism doctrine, mysticism thought.

**MARKAZIY OSIYODA TASAVVUFİY TAFAKKUR RIVOJI:
IX-XII ASRLAR MEROSI****Evatov Salimjon,**

Phd, katta o'qituvchi,

Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya. Tasavvuf Sharq xalqlari diniy madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Markaziy Osiyoda tasavvufning shakllanishiga doir tadqiqotlarni kuzatar ekanmiz, birinchidan, dunyoning turli davlatlaridagi tadqiqotchilar tasavvuf haqida asosan o'zlarining doiralarida ustuvor bo'lgan qarashlarga tayangan holda so'fiylik ta'limotining tarixi, shakllanishi va rivojlanishi hamda unda ilgari surilgan g'oyalalar haqida turlicha fikrlar bildirganlar. Ikkinchidan, Markaziy Osiyodagi tasavvuf boshqa hududlar, xususan, Xuroson tasavvufining tarkibi sifatida o'r ganilgan. Uchinchidan, Markaziy Osyo tasavvufi asosan XII asr tariqatlar davridan boshlab tadqiq qilina boshlanganligini kuzatishimiz mumkin. Mazkur maqolada IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda tasavvufiy-falsafiy g'oyalarning shakllanishiga doir tadqiqotlar sharhiga e'tibor qaratilib, mavzuga doir o'rta asrlarda yaratilgan manbalar bilan bir qatorda XX — XXI asrda Sharq va G'arb tadqiqotchilari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarga keng o'r in berilgan.

Kalit so'zlar: tasavvuf, falsafa, jamiyat, diniy-falsafiy ta'limot, tasavvufiy ta'limot, tasavvufiy tafakkur.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I4Y2025N31>

Kirish. Jahonda o'rta asr musulmon sharqidagi diniy-falsafiy ta'limotlar insoniyat tsivilizatsiyalari tarixida o'ziga xos gnoseologik va teologik mohiyati bilan zamonaviy bilimlarning nazariy asoslari sifatida e'tirof etilmoqda. O'rta asr islom ulamolari, mutafakkirlari qarashlari negizidagi insonparvarlik, haqiqatsevarlik, dunyoni bilish, ma'naviy-ruhiy tarbiya,

diniy, dunyoviy bilimlar uyg'unligini ta'minlash, aqliy va axloqiy etuklikka erishish haqidagi g'oyalari zamonaviy, ma'rifatli, barqaror jamiyatbarpo etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, globallashuv jarayonlari sababli ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarkeskin tus olayotgan hozirgi davrda o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama intellektual salohiyatli, ma'naviy etuk qilib tarbiyalash, turli g'ayriinsoniy g'oyalar ta'siridan asrashda ajdodlarimizning insonparvar maqsadlarga yo'naltirilgan gnoseologik, teologik qarashlari orqali echim topish zarurati bugungi kunda o'zining ilmiy-nazariy ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Dunyoning nufuzli ilmiy tadqiqot markazlari, ta'lim muassasalarida Sharq mutafakkirlarining jahon ilm-fani va falsafasitaraqqiyotiga qo'shgan hissasini baholash hamda gnoseologik va teologik qarashlarning tutash nuqtalarini aniqlash, ularning gumanistik kontseptsiyalariga oid fundamental tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, bugungi zamonaviy falsafa musulmon sharqidagi teologik va gnoseologik qarashlar sintezlashuviga oid qarashlarnio'rganish bo'yicha klaster nazariyalarni ilgari surmoqda. Bu nazariyalar diniy va dunyoviy qadriyatlar integratsiyasi, umuminsoniy qadriyatlarning yagona negizda uyg'unlashuvi va epistemologik muammolarining hali etarlicha o'rganilmaganligi, yangicha yondashuvarlar, zamonaviy keng tarmoqli tadqiqotlar zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Buyuk mutafakkir va alloma bobolarimizning ma'rifatli jamiyat to'g'risidagi g'oyalari, orzu-umidlari va armonlari, o'ylaymanki, ko'pchiligidan yaxshi tanish... Ajdodlarimizning ana shunday asriy intilishlarini ro'yobga chiqarish uchun ta'lim va ma'rifat tizimini takomillashtirish, mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni zamonaviy bilim olishga yo'naltirish, barkamol shaxsni tarbiyalash zarurligini yaxshi anglaymiz"

Mamlakatimizda ma'rifatli, ma'naviy-ruhiy etuk, intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalashda ajdodlar ilmiy-ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etishga, ularning zamon ruhiga mos g'oyalaridan yosh avlodni munosib vorislar qilib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada o'rta asr musulmon sharqi allomalarining islam dinining insonparvarlik mohiyatini targ'ib etuvchi gnoseologik va teologik ta'limotlaridagi gumanistik kontseptsiyalar negizda shakllangan konstruktiv ahamiyatga ega falsafiy g'oyalarini har tomonlama ilmiy-nazariy tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Jahon ilm-fanida tasavvuf tariqatlari, uning mazmun-mohiyati, kelib chiqish tarixi, so'fiylik tariqatining shakllanishi, so'fiy tariqatlar tizimida malomatiylik va qalandariylikning o'rni, ularning vujudga kelishi va tarqalishi, rivojlanishi va tanazzuli sabablari tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ma'lumki, tafakkur — bu insonning fikrlash, o'ylash, va tushunish jarayonidir. U ma'naviy, ruhiy va intellektual faoliyatni qamrab oladi. Tafakkur insonning muammolarni hal qilish, yangi g'oyalar yaratish, tushunchalarni aniqlash va o'zini anglash uchun zarur bo'lgan jarayonidir. Tasavvufiy tafakkur esa — bu tasavvuf (so'fiylik) doirasidagi ruhiy va ma'naviy fikrlash usulidir. U, asosan, insonning ichki olami, Alloh bilan aloqa va ruhiy poklanishga qaratilgan. Tasavvufiy tafakkur insonni o'zini anglashga, ruhiy rivojlanishga va ma'naviy olamdagи haqiqatlarni tushunishga yordam beradi.

Tasavvuf ta'limotlari, ayniqsa, Markaziy Osiyo hududida dastlabki shakllanish davridan boshlab islam an'analarini doirasidagi ta'limot sifatida baholanadi. So'fiylardan dastlab shariatga

mustahkam amal qilishlari talab qilingan. Tasavvuf namoyandalarining islom aqidasiga oid tushunchalarida o'ziga xos talqinga ega ekanligi ko'pgina tadqiqotchilarning bu ta'limotlar ildizlarini boshqa din va falsafalardan qidirishga turki bo'lgan bo'lsa ham, har bir g'oyaning islom ilmlarida o'ziga xos o'rni bor. So'fiylar bu g'oyalarga oddiy xalq tushungan ma'nodan boshqacharoq qo'shimcha ma'no bergenlar. IX asrdan to XII asr tariqatlar davrigacha bo'lgan vaqt mobaynida Markaziy Osiyodagi tasavvufiy jarayonlar bir necha yo'nalishlar doirasida takomillasha bordi.

Birinchi yo'nalish hakimiya so'fiylik oqimi bo'lib, uning tasavvufiy g'oyalariga Abu Turob Naxshabiy orqali Balx va Basra tasavvuf muhiti ta'sir qilgan. Bu oqim asoschisi bo'lgan Hakim Termiziyning g'oyalarini keyinchalik Abu Bakr Varroq Termiziy, Abul Qosim Hakim Samarqandiy davom ettirganlar. Ikkinci yo'nalish sayyoriya so'fiylik oqimi bo'lib, bu yo'nalishga Junayd Bag'dodiy bilan birga Bag'dod so'fiylik muhiti ta'sir ko'rsatgan. Bu oqimning asoschilaridan bo'lgan Abul Abbas Sayyoriyning ustozи Abu Bakr Vositiy bo'lgan. Bu oqim g'oyalarini Abdulvohid ibn Ali Sayyoriy va boshqalar murid-murshidlik an'nalari asosida davom ettirgan. Uchinchi yo'nalish malomatiya so'fiylik oqimining Markaziy Osiyo sho'basi bo'lib, unga Nishapur so'fiylik muhitining ta'sirini ko'rish mumkin. Bu oqimning Markaziy Osiyo vakillari Abu Ja'far Farg'oniy va Umar Bob Farg'oniyalar bo'lib, ularning ta'limotlari ustoz-shogird an'analari asosida davom ettirilgan. To'rtinchi yo'nalish Yusuf Hamadoniy orqali asoslangan[2, 4]. U Boyazid Bistomiy va Junayd Bag'dodiy g'oyalarini birlashtirgan holda o'ziga xos yo'nalishga asos solgan. Ushbu so'fiylik oqimlarida tasavvufiy-falsafiy ta'limotlar rivojlantirildi va yangi o'ziga xos g'oyalar bilan boyitildi. Markaziy Osiyo so'fiylik oqimlariga boshqa islom o'lkalarida mavjud bo'lgan tasavvuf maktablar g'oyalarining ta'siri kuchli bo'lgan. Markaziy Osiyo so'fiylik maktablari davri Hakim Termiziy nomi bilan bog'lanadi. Uning tasavvuf ta'limotlarini tizimlashtirish va nazariy asoslarini ishlab chiqish borasidagi harakatlarini butun islom olami ulamolari e'tirof etadi. Uning tasavvufiy g'oyalariga Damashq so'fiyalaridan Abu Abdulloh Ahmad ibn Osim Antokiyning ta'siri katta bo'lgan[3, 58]. Shuningdek, Hakim Termiziy ta'limotlarida Balx, Bag'dod, Nishapur hamda Madina so'fiylik maktablari ta'sirini ham ko'rish mumkin[4, 19-20].

Natijalar va muhokama. Markaziy Osiyo hududidagi tasavvufiy tariqatlar IX asrdan boshlab vujudga kela boshlagan. Tariqatlarning shakllanish evolyutsiyasi, tadqiqotimizning ibtidosida qayd etganimizdek, bir necha bosqichlarda amalga oshgan va umumiy ma'noda quyidagi ravishda o'zgargan:

1. IX-X asrlarda Muhosibiy, Junayd Bag'dodiy, Abu Bakr, Kalobodiy, Abu Nasr Sarroj, Abdurahmon Sullamiy, Hujviriyarning fikriga ko'ra, tariqat asosan amaliy (qisman nazariy) uslub, axloqiy, psixologik qoidalar yig'indisidir. Bu davrda tariqat maqom va hol bilan bog'liq bo'lgan.

2. X-XII asr o'rtalarida pir, shayx, murshid va murid instituti avval Xurosonda vujudga kelib, keyin butun musulmon olamiga tarqalgan. Bu davrda tariqat ta'lim berish maktabiga aylangan va faqat maxsus kishilar doirasida kengayib, xalq ommasi orasida tarqalgan.

3. XII asrning oxirida silsila instituti to'la shakllandi va so'fiylik tariqatlari vujudga keldi[5, 64].

Tasavvufshunos olim X. S. Karomatov tasavvufning vujudga kelishi va taraqqiyot bosqichlarini alohida ajratishni taklif qiladi. Uning fikriga ko'ra, tasavvuf VII-VIII asrlarda asketizm, keyinchalik IX-X asrlarda mustaqil diniy-falsafiy va axloqiy ta'limot, XII asrning

oxirlariga kelib esa, tashkiliy va nazariy jihatdan shakllangan. Najmiddin Komilovning fikricha, tasavvuf tarixi ikki davrga, birinchidan, VIII-XI asrlar (asketizm davri) va ikkinchidan, XI-XIV asrlar (tasavvufning keng tarqalishi davri)ga bo'linadi.

Tasavvufning ilk o'rta asrlardan boshlab turli yo'naliishlarda rivojlanishini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. IX–XI asrlarda tavhid asoslarini chuqurlashtirish, fano (yo'qlik) va baqo (borliq) tushunchalari, vahdat va kasrat, Xudoga (vosil bo'lish) singish masalalari o'rganilgan;
2. XIII asr o'rtalaridan boshlab, tafakkuriy-aqliy yo'naliish "vahdat ul-vujud" etakchilik qilgan:
3. XIV–XV asrlar tasavvufning irfoni, diniy-falsafiy masalalari, haqiqatni bilishga erishishning nazariy muammolari o'rganila boshlandi.

Yuqoridagi tasniflar tasavvufning rivojlanish bosqichlarini to'la ochib bera olmasligi, bizga noma'lum tomonlar ham bo'lishi mumkin, lekin shu bosqichlarga tayanib, mushohada yuritadigan bo'lsak, Markaziy Osiyoda shakllangan tariqatlar ham xuddi shunday tasavvufning har qanday rivojlanish jarayonlari singari ular bilan hamohang tarzda taraqqiy etganiga guvoh bo'lamiz.

Garchi tasavvuf ilk oqimlari va yo'naliishlarining vujudga kelishi dastlab Kufa, Bag'dod, Basra, Misr kabi madaniy markazlar bilan bog'liq bo'lsa ham, keyingi davrlarda Markaziy Osiyoda, xususan, butun islom olami miqyosida hakimiylilik, sayyoriylik, yassaviylik, xojagon-naqshbandiya va kubraviylik kabi yirik tasavvuf tariqatlari vujudga keldi va rivojlandi.

Markaziy Osiyoda nafaqat tasavvuf tariqatlari balki tariqatga asos solmagan bo'lsada, buyuk mutasavviflar etishib chiqqani va butun tasavvuf olamida katta obro'-e'tibor qozongan ilk tasavvuf namoyandalarini ko'rish mumkin. Jumladan, Buxoroda yashab ijod etgan Abu Bakr Kalobodiyni (vaf. 990 yoki 995 y.) alohida ko'rsatib o'tish o'rinci. Mutasavvifning islom olamidagi eng birinchi tasavvufiy asarlardan biri hisoblangan "At-Ta'arruf li-mazhabi ahli-t-tasavvuf" asari hozirga qadar ham tasavvuf sohasidagi qomusiy manba hisoblanadi. Asar tasavvuf nazariyasi va amaliyoti to'liq bayon etilgani bilan diqqatga sazovordir.

Abu Bakr Kalobodiyning tasavvuf sohasida amalga oshirgan eng katta xizmati shundaki, o'zining «At-ta'arruf» asarida an'anaviy islom va tasavvuf orasida muayyan o'rtacha yo'l topishga harakat qilgan. Abu Bakr Kalobodi "At-ta'arruf" asaridan tashqari "Bahrul-favoid fi ma'onil axbor" ("بحر الفوائد في معان الأخبار") singari kitobida tasavvuf ta'limoti, tarixi, tariqatlari, so'fiylarning botiniy olami, komillik darajalari, ishorat hamda muomalot to'g'risidagi tushuncha va qarashlari tasavvufiy-falsafiy, ilmiy-nazariy tomondan tahlil qilingan. Abu Bakr Kalobodi tasavvufiy qarashlarining muhim xususiyati shundaki, u insonning zohiriya va botiniy olamini bir-biridan ajratmaslik, odob-axloq, nafs va ruh, qalb tarbiyasi orqali insonda qudratli birlik tuyg'usini yaratish tajribalari hamma zamonlarda zarur bo'lgan ko'rsatgichlar bo'la olishini asoslab bergenligidir. Abu Bakr Kalobodiyning "At-Ta'arruf" asariga sharh yozgan mutasavviflardan biri Xoja Abu Ibrohim Ismoil ibn Muhammad ibn Abdulloh al Mustamliy al-Buxoriyidir. U taxminan 968-970-yillar atrofida Buxoro shahrida dunyoga kelib, 1043-yilda ana shu shaharda olamdan o'tgan. Mustamliy Buxoriy o'zidan ikkita asar qoldirgan bo'lib, ulardan biri bizgacha etib kelmag'an Qur'onning forscha tafsiri, ikkinchisi esa Abu Bakr Kalobodiyning arab tilida yozilgan "At-Ta'arruf" asariga sharh sifatida yozilgan va ushbu tadqiqotga manba bo'lgan forscha "Sharh at-Ta'arruf" asaridir. Mustamliy Buxoriyning "Sharh at-Ta'arruf" asarida tasavvufning mohiyati,

ruknlari, maqom va hollarning ta'rifi, tavsifi, chegarasi, turlari, ketma-ketligi hamda o'zaro aloqadorligi, ma'rifat va boshqa tasavvufga oid masalalar yoritilgan. Mustamliy Buxoriy tasavvufning nazariyotchi olimi sifatida ko'zga tashlansa-da, hadis, fiqh va kalom ilmi sohalari, dunyoviy ilmlar: matematika, astranomiya, tibbiyat, kimyo va mineralogiya kabilarning ham bilimdoni hisoblangan. Hozirga kunga qadar tadqiqotchilar o'rtasida Abul Hasan Hujviriyning "Kashf ul-mahjub" asari tasavvufga oid fors tilida yozilgan ilk manba h. Tadqiqotchi K.Rahimovning fikricha, Mustamliy Buxoriyning "Sharh at-Ta'arruf" asari fors tilida yozilgan ilk manba bo'lib hisoblanadi. Mustamliy Buxoriy o'z asarini shariat va kalom, mo'taziliylar o'rtasida tasavvufga nisbatan olib borilayotgan tazyiqlardan asrash, tasavvufning shar'iy ilmlardan ekanligini isbotlash, an'anaviy islom va tasavvuf o'rtasidagi mo'tadil yo'lni ko'rsatib berish maqsadida ta'lif etgan. Mustamliy Buxoriyning "Sharh at-Ta'arruf" asari o'zidan keyingi davrlarda yozilgan "Kashf ul-mahjub", "Risolai Qushayriya", "Tazkiratul avliyo", "Faslul xitob", "Nafaxot ul-uns", "Nasoyim ul-muhabbat" kabi asarlarning mazmun-mundarijasini yozishda katta ta'sir ko'rsatgan.

Xulosa. Markaziy Osiyodagi mavjud madaniy taraqqiyot, falsafiy ilmlarning yoyilishi va uning natijasida yuzaga kelgan siyosiy-aqidaviy oqimlarga qarshi g'oyaviy kurash zaruratining yuzaga kelishi, shuningdek, islom dini va uning mohiyatini anglashda ratsional-emotsional bilish uslubining takomillashuvi tasavvufiy-falsafiy ta'limotlarning shakllanishiga olib keldi.

Markaziy Osiyo tasavvufi vakillarining asosiy qismi hanafiy faqihlar, muxaddislar va kalom ilmi namoyandalari bo'lib, ular turli aqidaviy-falsafiy oqimlarning g'oyalalariga qarshi o'z ta'limotlarini yaratdilar va bu tasavvufda ham o'ziga xos tarzda aks etdi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. -B.275
2. Komilov N., Yoqubov A. Markaziy Osiyo xalqlari tafakkuri rivojida tasavvufning tutgan o'rni (X-XV asrlar). –Toshkent: Akademiya, 2005. –B.4.
3. Uvatov U. Al Hakim at-Termizi. O'zbekiston – buyuk allomalar yurti. Imam Buxoriy xalqaro markazi. tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi Ubaydullo Uvatov. – Toshkent: Ma'naviyat, 2010. –B. 58-69.
4. Усманов И. Ҳаким Тирмизи [Текст]. И.Усманов, М.Зуфарова; Ответственный редактор Шейх А.Мансур: Ташкентский исламский университет, Научно-исследовательский центр исломоведения, Управление Мусульман Узбекистана. – Ташкент, "Movorounnahr" 2016. – С.19-20.
5. Komilov N. Komillik tariqati. Tafakkur-1998. -№1.
6. Evatov, S. S. (2024). MARKAZIY OSIYODA TASAVVUFİY-FALSAFIY TA'LIMOTLAR VUJUDGA KELİŞİNİNG TARİXIY-MADANIY ASOSLARI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(10), 79-84.
7. Ганиев, Б. С., & Эватов, С. С. (2020). ЗНАЧЕНИЕ И РОЛЬ ИСЛАМСКО-ТЕОРЕТИЧЕСКОГО (СУФИЙСКОГО) УЧЕНИЯ НАКШБАНДИЯ В ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОМ ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ. In *I Международный форум "Богословское наследие мусульман России"* (pp. 253-256).
8. EVATOV, S. (2024). ISLOM ILOHIYOTSHUNOSLIGI VA UNING HUQUQIY TIZIMI. *Молодые ученые*, 2(19), 55-57.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 4 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).